

KIMYOVIY MODDALARDAN ZAHARLANISH

Komilova Ozoda Abdumuxtor qizi

Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Anotatsiya: Qo'rg'oshindan zaharlanish va Simobdan zaharlanish. Organizmga qo'rg'oshin va simobning zaharli tasiri natijasida kelib chiqadigan salbiy xolatlar qo'rg'oshin va simob bilan ishlovchi kishilarda kelib chiqadigan zaharlanish xolatlari va ularni aniqlash tashxis qo'yish va davolash xamda profilaktika ishlarini olib borishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'z : Qo'rg'oshindan zaharlanish. Simobdan zaharlanish.

Ular mashinasozlikda, asbobuskunalar ishlab chiqarishda, radioelektronikada (qo'rg'oshin bilan payvandlash), akkum ulator, kabel ishlab chiqarishda, tipografiya sanoatida (qo'lda yoki linotip mashinalarda harf terish), rangli va qora metallarni eritishda, chinni, sopol va billur, qo'rg'oshinli bo'yoqlar ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda ishlatiladi. Jigarga tushgan qo'rg'oshin jigar hujayralari tomonidan so'rilib, asta-sekin o't bilan birga ajralib chiqadi. Qo'rg'oshin qonda yuqori dispers holida qo'rg'oshinning kolloid ko'rinishidagi fosfatlar va albuminatlari sifatida aylanib yuradi, ular o'z navbatida qo'rg'oshinning noorganik fosfatlari orasida eritrotsitlar va qon plazmasining oltingugurt saqllovchi oqsillarining o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Ayrim ekzogen va endogen omillar (ichkilik ichish. interkurrent kasalliklar, jarohatlar, fizioterapevtik muolajalar, ovqatlanish tartibining buzilishi, kislota-ishqor muvozanatining buzilishi va h. k.) ta'sirida qo'rg'oshin shiddat bilan ajraladi, bunga sabab depodagi erimaydigan qo'rg'oshin birikmalari eriydigan birikmalarga aylanishidadir. . Qo'rg'oshin kishi organizmidan asosan ichak va buyraklar orqali chiqib ketadi. U so'lak orqali, shuningdek, laktatsiya davrida ona suti orqali ajralishi mumkin.

Qo'rg'oshindan zaharlanish patogenezi- Nerv tizimidagi o'zgarishlar (neyrosaturnizm) astenik, astenovegetativ sindrom hamda polinevropatiya va turli

darajadagi ensefalopatiya ko'rinishida kechishi mumkin. Obyektiv ko'rilganda mushak gipotoniyasi, turg'un dermografizm, gipergidroz, yaqqol ko'z-yurak refleksi, bradikardiyaga moyillik qon bosimining o'zgaruvchanligi kuzatiladi. Qo'rg'oshindan zaharlanishdagi tez uchrab turadigan klinik belgi periferik polinevropatiyadir. Uning boshiang'ich turida vegetativ o'zgarishlar ham ko'p uchraydi - og'riq, paresteziya, qo'l-oyoqlarda uvishish. oyoqlarda quvvatning kamayishi, ayniqsa, tinch holatda (kechalari) boldir mushaklarining tortishishi, qo'l-oyoqlar teri qoplamlarining yengil sianozi va oqarishi, gipergidroz, gipotermiya, so'ng giperesteziya kuzatiladi. Qo'rg'oshindan zaharlanishda ovqat hazm qilish sistemasida oshqozon sekreti yasining kuchayishi yoki kamayishi kabi o'zgarishlar bo'ladi.

Qo'rg'oshin ichak fermentlari faolligiga ta'sir qiladi, pirovardida ovqat hazm qilish faoliyati shikastlanadi, ingichka va yo'g'on ichakning diskineziyasi ham rivojlanishi mumkin. Bu o'zgarishlar og'izda noxush ta'm, ko'ngil aynishi, kekirish, ishtahaning pasayishi, epigagastriyada og'riq sezgisi, qorinda barqaror og'riq va qabziyatga moyillikni keltirib chiqaradi.

Oshqozon-ichak traktidagi og'ir o'zgarishlardan biri bu ichak (qo'rg'oshin) kolikasidir (sanchiq). Qorin paypaslab ko'rilganda, og'riq biroz kamayadi. Qorin pardasining ta'sirlanish belgisi manfiy, teri qoplamlari kulrang tusda oqargan. skleralar subikterik, milklarda «qo'rg'oshinli hoshiya» bo'lishi mumkin. «Sanchiq» davrida biologik suyuqliklarda qo'rg'oshin miqdori ko'payib ketadi. Jigar qo'rg'oshinning organizmdagi metabolik jarayonida muhim o'rin tutadi

Davosi. Q o'rg'oshindan zaharlanishni davolash uni organizmdan chiqarib yuborishga qaratilgan bo'lishi kerak. Tetatsin kalsiy va pentatsin preparatlari qo'rg'oshinning organizmdan tez chiqib ketishiga sababchi bo'ladigan dori-darmon hisoblanadi. Qo'rg'oshinli sanchiqda esa tetatsin kalsiy yoki pentatsin kuniga 2 martadan venaga yuborilishi mumkin. Oxirgi yillarda qo'rg'oshindan zaharlanishda D-pensillinamin (DPAM) kengroq qo'llanilyapti. D -pensillinam in preparati ko'proq zaharlanishning yengil va boshiang'ich shakllarida qo'llaniladi. Bu preparat bilan kasallikni statsionarda poliklinika va sanatoriya-profilaktoriya sharoitlarida ham davolash mumkin

Simob va uning noorganik birikmalaridan zaharlanish.

Metallsimon simobdan surunkali zaharlanish simob olinadigan kon va zavodlarda, o'lchov jihozlari, elektron jihozlar, simobli o'tkazgichlar, nasoslar va boshqalarni ishlab chiqarish, sozlash jarayonlarida va ilmiytekshirish laboratoriyalarida ishlovchilarda kuzatilishi mumkin. Metallsimon simob bug'lari organizmga nafas yo'llari orqali kiradi, Simob har xil a'zolarida (jigar, buyraklar, taloq, miya va b.) to'planish xususiyatiga ega. Organizmda simob me'da-ichak yo'li bezlari, so'lak, teri bezlari va buyraklar orqali chiqib ketadi.

Klinikasi. Ishlab chiqarish sharoitida metallsimon simob bug'laridan o'tkir zaharlanish kamdan-kam kuzatiladi (faqat ba'zi bir baxtsiz holatlarda yoki ishlab chiqarishda sodir bo'lgan avariya holatlarida simob juda ko'p miqdorda ajralib chiqishi mumkin bo'lganda). O'tkir zaharlanishda og'izda metall ta'mi, bosh og'rig'i umumiy behollik, haroratli holat, qusish, ich ketish kuzatiladi.

Xotira pasayadi, bosh og'rig'i bezovta qiladi. Bemorlarda aniqlanadigan «simobli eretizm» sindromi - uyatchanlik, hayajonlanish, o'ziga ishonchsizlik, begonalar ishtirokida odatdagi ishini ham bajara olmaslik, qon tomirlar reaksiyasi, yurak urishi, yuzning qizarishi, terlashdan iboratdir. Obyektiv tekshirilganda, quyidagilar kuzatiladi:-vegetativ disfunktsiya simptomlari: teri rangining o'zgarishi, uzoq saqlanadigan qizil dermografizm, ko'p terlash, gipersalivatsiya:

- yurak-tomir tizimida taxikardiya, yurak urishining tez o'zgarishi, qon bosimining o'zgarishi va h. k.

- me'da-ichak a'zolarida gingivit, og'izda metall ta'mi, ich ketishi va h. k.

- endokrin tizimida hayz ko'rish siklining o'zgarishi, erkaklarda jinsiy ojizlik, qalqonsimon bezning kattalashishi, uning disfunktsiyasi. Simobdan zaharlanishning o'ziga xos belgilaridan biri uzatilgan qo'llar barmoqlarining titrashi, titrash, ko'pincha kasallikning boshlanishida, bemor hayajonlanganda kuzatiladi.

Tashxisi. Simobdan zaharlanishning yaqqol ko'rinishiga quyidagi belgilar, ya'ni psixoemotsional holatning buzilishi, uyquning buzilishi, tremor, nistagm. gingivit, yaqqol vegetativ buzilishlar kabi klinik belgi taqqoslash tashxisida alohida ahamiyatga ega.

Davosi. Simobdan zaharlanish kompleks davolanadi. Organizmni simobdan xalos etishda ziddi zahar antidotlar ishlatiladi: unitiol, suksimer. natriy tiosulfat shular jumlasidandir. Davolash jarayonida miyaning qon bilan ta'm inlanishi va metabolizmni sozlovchi dorilar ham o'rinlidir. Piratsetam, stugeron va vitaminlar. ya'ni askorbin kislotasi, vitamin B¹ B6 shular jumlasidandir.

Profilaktikasi. Simob va uning birikmalaridan zaharlanishning oldini olish uchun ko'riladigan chora-tadbirlarning eng muhimi bu - zaharli m oddalar o'rniga kam zararli kimyoviy m oddalar ishlatish yoki korxonalarda yoki laboratoriya xonalarida um um an simob konsentratsiyasini kamaytirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kasb kasalliklari. Mahmudov. SH. K Toshkent « Yangi asr avlodi» 2011